

BOLALAR ADABIYOTI VA TARBIYA

Nishonboy Husanov

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti professori, filologiya fanlari
doktori*

Allohning bizga bergan ulug‘ ne‘mati – Qur’oni karim, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho boylik – qadimiy yodnomalarda tarbiyaga alohida e‘tibor berilgan. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa ajdodlarimizning bitiklarida u asosiy va doimiy mavzu hisoblangan. Ma‘lumki, inson uchun eng ulug‘ ne‘mat bo‘lgan farzandning tarbiyasida ota-ona va ustoz- murabbiyning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri – ma‘rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikri tarbiyaning jamiyat tamaddunidagi o‘rnining aniq va to‘g‘ri ifodasidir. Abdulla Avloniy yoshlarini savodli qilish va yetuk mutaxassislar tayyorlash, vatanni ozod ko‘rish va farovon etish yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib o‘z uyida “Shuhrat” nomli gazeta nashr qilgan, mahallasida yangi usuldagi maktab ochgan hamda “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlar yaratgan ma‘rifatparvar adib, dramaturg, pedagog, noshir ekanligi fanda ma‘lum bo‘lsa-da, uning pedagogik faoliyati va “Turkiy guliston yoxud axloq” asari ilmiy tadqiq etilmagan edi. Avloniyning ijodiy merosini tadqiq etish bo‘yicha samarali ishlar olib borgan Rahmatulla Barakayev o‘zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelish, rivojlanish xususiyatlarini chuqur va atroflicha tadqiq etayotgan, 40 yildan ortiqroq O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (ilgarigi Til va adabiyot instituti)da faoliyat yuritib, “igna bilan quduq qazishdek” mashaqqatli va sharaflil ishga mehr qo‘ygan taniqli olimdir.

U o‘zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelishini ma‘rifatparvarlik harakatiga, xususan “usuli savtiya” maktabining asoschisi Abdulla Avloniyning adabiy-pedagogik asarlariga bog‘lagan va ilmiy asoslagan olimdir. U o‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishi yuzasidan Sh.Sulaymonov, G‘.Karimov, H.Abdusamatov, O.Safarov, O‘.Rashid, A.Suyumov, P.Shermuxamedovlar biryoqlama fikr bildirganining sabablarini ochib berdi va tahliliy materiallari orqali masalaning mohiyatini yoritdi. Bu jarayonda pandnomalar, Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” va “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asarlaridan asosiy manba sifatida foydalandi. Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”i sharqona o‘dobbaxloqning muhim va asosiy manbasi sifatida o‘zbek tiliga 3-marta tarjima qilingan: Sayfi Saroyi (1391), Muhammad Rizo Ogahiy (19-asr ikkinchi yarmi), Mulla

Murodxo‘ja (1909)lar tarjimasini. R.Barakayev Murodxo‘janing “Shavqi Gulistoni musavvar”ini “Guliston” bilan taqqoslab, uning o‘ziga xos jihatlari – tarjimaning sodda va tushunarligini, ilmiy-tanqidiy matnini, maktab va madrasa talabalari uchun ahamiyatini tahlil qilgan. Abdulla Avloniy yuqoridagi asarlardan tubdan farq qiluvchi “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini 1913-yilda chop ettiradi. R.Barakayev fikricha, u Turkiston maktablari uchun ona tilimizda yozilgan mukammal axloq kitobidir: “Turkiy Guliston”da muallif yosh kitobxonni isoniy fazilatlarni egallashga da’vat qiladi. Biroq insoniy fazilatlarga erishish uchun dastlab ularning nimalardan iborat ekanini ham bilish kerak. Shu sababli muallif yosh kitobxoniga dastlab inson va uning zohiriy hamda botiniy sifatlari xususida ma’lumot beradi: Inson ikki narsadin murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko‘z ila bor narsalarni ko‘rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondin, oqni qoradin ayirur. Nafsning suvrati ko‘zga ko‘runmaydurgon, aql ila o‘lchanadurgon bir nimarsadurki, buni Xulq deb atalur” (1, 57 s).

Ma’lumki, Sa’diyning “Guliston”i sakkiz bob (podshohlar odati, darveshlar axloqi, qanoat fazilati, sukut saqlash foydasi, ishq va yoshlik, zaiflik va keksalik, tarbiyaning ta’siri)dan iborat bo‘lsa, Avloniyning “Turkiy Guliston”ida o‘ttiz uchta yaxshi va yigirma bitta yomon xislatlar alohida berilgani yosh kitobxon uchun nihoyatda muhimligini muallif to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek Sa’diyning “Guliston”ida pandlar turli hikoyatlar asosida berilgani holda Avloniyda asosan pand-nasihatlar va ma’lumotlar, fikrning xulosasi — she’riy parcha berilganining ahamiyati ochib berilgan. Rahmatulla Barakayev “Turkiy Guliston”dagi yaxshi va yomon xulqlarni Muhammad Avfiyning “Javome ul-hikoyat va lavome ul rivoyot”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul qulub”, Hamzaning “Qiroat kitobi” asarlaridagi inson tabiatidagi yaxshi va yomon sifatlarga qiyoslab tahlil etish orqali Avloniy asarining mohiyatini va ahamiyatini to‘liqroq ochib beradi: yosh avlodni yaxshilik sari undash, yomonlikdan asrash maqsadida har bir xulqning o‘ziga xosligini allomalar asarlaridan olingan misollar orqali asoslab she’riy xulosa chiqarishi ta’kidlanadi. “Turkiy guliston yohud axloq”da xulqning an’anaviy ikki turi ko‘rsatiladi: “Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar: agar nafsi tarbiyat topub, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg‘a tavsif bo‘lub — yaxshi xulq; agar tarbiyatsiz o‘sub, yomon ishlar ishlaydurgon bo‘lub ketsa, yomonliqg‘a tavsif bo‘lub — yomon xulq deb atalur.”(2,4s).

Rahmatulla Barakayev Avloniyning yaxshi va yomon xulq, sabr, “hifzi lison” (ona tilini saqlash), jaholat haqidagi fikrlarini chuqur tahlil qiladi.

Ma’lumki, barcha dinlar jamiyatning taraqqiyotiga, insonning imon va e’tiqodi yuksalishiga xizmat qilgan. Islom dini imon va e’tiqod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Quroni karim va hadislar, payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan

asarlari komil insonlarni tarbiyalashda, go‘zal ma‘naviyatni yuzaga keltirishda asosiy manba hisoblanadi. Har bir xalqning yozma manbalarida ko‘plab diniy (Olloh, payg‘ambar, farishta, avliyo va boshqalar) nomlar uchraydi. Qur‘oni Karimda Qur‘onda 28 ta payg‘ambarning nomi qayd etilgan bo‘lsa-da, ulardan 25 tasi ilohiy elchi deb e‘tirof etilgan: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Lut, Ismoil, Is‘hoq, Yoqub, Yusuf, Ayyub, Muso, Shuayb, Zul kifl, Xorun, Dovud, Sulaymon, Yunus, Alyasa‘ (alyasa‘), Ilyos, Zakariyo, Yahyo, Iso, Muhammad. Uzayr, Luqmon va Zulqarnaynlar esa diniy adabiyotlarda avliyolar safiga kiritiladi. Qur‘ondagi 114 suraning 7 tasi payg‘ambarlar nomiga qo‘yilgan: Yunus — 10 sura, Hud — 11 sura, Yusuf — 12 sura, Ibrohim — 14 sura, Muhammad — 47 sura, Nuh — 71 sura, Inson — (Odam) — 76 sura.

Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniy asarlaridagi tassavvufga oid so‘zlar, atamalar, payg‘ambarlar va farishtalar nomlari — Odam Ato, Iso, Ayyub, Muso, Yoqub, Ismoil, Is‘hoq, Yusuf, Ibrohim, Nuh, Muhammad, Ilyos, Ilyos, Xizr, Azroil, Jabroil, Isrofil, Mekoil va boshqalar kishilarda imon, e‘tiqodni shakllantirishga katta hissa qo‘shgan. Payg‘ambarlarning nomlari ma‘nolari haqida maqola e‘lon qilingan bo‘lsa-da (3-19), ularning badiiy adabiyotda tutgan o‘rni, xususan imon va e‘tiqodning yuksalishiga, komil inson tarbiyasiga ta‘siri masalasi tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha o‘rganilmagan, to‘liq yoritilmagan edi. Rahmatulla Barakayev Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asari yosh avlodni haq yo‘liga chorlash va e‘tiqodini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan. Monografiyada Muhammad Avfiyning “Javome‘ ul-hikoyot va lavome‘ ul-rivoyot”, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” va payg‘ambarlar haqida ma‘lumot beruvchi boshqa asarlarga e‘tibor qaratilgan, payg‘ambarlar va avliyolar soni yuzasidan bahslarga munosabat bildirilgan. Rahmatulla Barakayev “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom”da payg‘ambarlarga tegishli asosiy ma‘lumotlarni quyidagicha guruhlashtirgan: a) payg‘ambarlarga nozil qilingan dinlar va yuborilgan kitoblar; b) payg‘ambarlardan qolgan sunnatlar; v) payg‘ambarlar tomonidan sodir bo‘lgan mo‘jizalar; g) nisbatan mufassal ma‘lumot berilgan payg‘ambarlar; d) Muhammad alayhissalom haqida ma‘lumotlar; ye) islom dini nozil bo‘lishi va tarqalishi haqida ma‘lumotlar; k) chahoryorlar – Abubakr Siddiq, Umar, Usmon, Ali xalifaliklari haqida ma‘lumotlar” (1,82).Olimning bu tasnifida Avloniy payg‘ambarlarning asosiy sifat va fazilatlarini — insonlarni haq yo‘lga chorlash, ma‘naviy kamolotga yetkazish, mo‘jizalar ko‘rsatish, jabru jafu chekish, sinovlarga sabr qilish, Muhammad mustafo sallollohu alayhi vassalamning islom dini borasidagi xizmatlarini ta‘sirli va muxtasar aks ettirgani o‘z ifodasini topgan. “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom”da islom dinidagi muqaddas sanalar, zakot berish, iyd

namozi, azon aytilishi va boshqa voqealar insonni hidoyat yo‘liga boshlaydi, e‘tiqodini kuchaytirishga xizmat qiladi. Umuman, muallif Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” va “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asarlari yoshlarni haq yo‘lga boshlashda, ularda yuksak fazilatlarni shakllantirishda, e‘tiqodli va barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim manba egaligini mahorat bilan ochib bergan. Zero, ma’naviy boy va komil insonlarga jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyotni va iqtisodiy farovonlikni vujudga keltira oladi. Abdulla Avloniyning asarlari esa yoshlar ongida to‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirishga, islom dinining asl mohiyati – ma’rifatli va yurtparvar insonlarni tarbiyalashga xizmat qilishi monografiyada aniq ifodasini topgan.

Rahmatulla Barakayev monografiyada bolalar adabiyoti namunalari o‘qish darsliklari – alifbo va o‘qish kitoblari zahirida shakllanganini Munisning “Savodi ta’lim”, Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Munavvar qorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” asarlari misolida yoritadi. Muallifning fikricha, “bu asarlarning dastlabki o‘ziga xosligi kitobning birinchi qismi dars o‘qitish uslubiyati va alifboni o‘rgatishga bag‘ishlanganida hamda harflarni o‘rgatish jarayonida xalq og‘zaki ijodining eng kichik janrlari – maqol, topishmoq va hikmatli so‘zlardan foydalanganida, ikkinchi qismi esa kichik hajmli she’riy va nasriy asarlardan, asosan, ibratli hikoya va masallardan tashkil topganida namoyon bo‘ladi” (1,95). Monografiyada alifbolar tarkibidagi asarlar tuzilishiga va mazmuniga ko‘ra tasnif etilgan: birinchi qismi sof adabiy xarakterdagi asarlardan, ikkinchi qismda maktab, ilm, ota-ona, xulq, adab, yaxshi va yomon xislatlar aks etgan publitsistik ma’lumotlardan, uchinchi qismda Muhammad alayhissalom, e‘tiqod va islom dini xususidagi dastlabki diniy ma’lumotlardan tashkil topganligi konkret misollar asosida tahlil qilingan. Rahmatulla Barakayev Avloniy asarlarini tahlil etar ekan, “Ikkinchi muallim” axloqiy hikoyalar va adabiy she’rlardan, “Maktab gulistoni” to‘lig‘icha she’riy asarlardan tashkil topganligini, ya’ni shaklan soddadan murakkabga, mazmunan mavzular rang-barangligiga, kengayib va murakkablashganiga alohida e’tibor qaratadi. Monografiyada Avloniyning “Salovotlari”, “Zuluk ila ilon” masali, “Maktab”, “Maktabga da’vat”, “Millatga salom”, “Millatga xitob” she’rlari, “Aqli bola” hikoyalari atroflicha va chuqur tahlil qilingan.

Umuman, Rahmatulla Barakayev Avloniyning ilm-ma’rifat va axloq-odob mavzuidagi asarlari, tarjimalari orqali bolalar kitobxonligining paydo bo‘lishi, tashkil topishi va shakllanishini aniq manba va misollarda tahlil qilgan.

Adabiyotlar

1. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent: “Fan”, 2004, 158 s.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1917, 2 ta’b.
3. Husanov N. Payg‘ambarlar ismining ma’nolari // Sirli olam. — 1994. - № 4. - B. 19-20.